# Фарғона ҳақиқати

Ҳақиқатни кўрмоқ ва унга интилмоқ – ёки жасорат, ёки тарбия маҳсули.
КОНФУЦИЙ.

ФАРҒОНА ВИЛОЯТИ ҲОКИМЛИГИНИНГ БОШ НАШРИ

Сайтимизга ўтиш учун QR кодини телефонингиз орқали сканер қилинг

Газета 1917 йил 14 октябрдан чиқа бошлаган | http://farhaqiqat.uz/ | t.me/farhaqiqati | 2021 йил 12 март, жума | № 21 (24514)

**Кун жараёни**

## Маҳаллаларда сайёр сессиялар

Халқ депутатлари Фарғона шаҳар Кенгашининг “Шодиёна” маҳалла фуқаролар йиғинида ўтказилган сессиясида расмийлардан ташқари маҳалла фуқаролари ҳам иштирок этди.

**Сайёр сессияда шаҳар ҳокими М.Убайдуллаев маҳалла фуқаролар йиғинида “маҳаллабай”, “хонадонбай” ўрганишлар натижасида аниқланган муаммо ва камчиликларни бартараф этиш юзасидан ишлаб чиқилган “Йўл харитаси” бўйича ахборот берди.**







Маҳалла шаҳар марказида жойлашганига қарамай шароити оғир ҳудуд ҳисобланади. Янгича ишлаш тизими асосида 1772 та хонадон, 2500 дан ортиқ оила, шунингдек, тадбиркорлик субъектлари, иқтисодиёт ва ижтимоий соҳаларнинг ҳақиқий ҳолати ўрганиб чиқилди. Очиқ суҳбатлар асносида ҳудудда йиллар давомида тўпланиб қолган муаммо ва камчиликлар аниқланиб, уларни қисқа давр мобайнида бартараф этиш бўйича лойиҳалар ишлаб чиқилди.

“Йўл харитаси” бўйича “ўсиш нуқтаси”нинг уч босқичдаги тизими белгиланди. Дастлабки йўналишда Соҳибқирон Темур кўчаси бўйида жойлашган 170 та хонадонлар фуқароларнинг ўз ҳисобидан ёки банк кредити орқали таъмирланади, миллий меъморчилик асосида қайта қуриш ҳисобига савдо, маиший хизмат кўрсатиш шохобчалари барпо этилади. Бу билан 300 нафардан зиёд иш ўрни яратилади. Бундан ташқари, ҳудудда тиббиёт шаҳарчаси қурилади. Энг замонавий техника ва технологиялар билан жиҳозланадиган тиббиёт муассасаларида юзлаб ҳамшаҳарларимизни иш билан таъминлаш имконияти вужудга келади.

Ижтимоий-иқтисодий муаммоларни ижобий ҳал этишнинг иккинчи босқичи орқали ҳудуддаги кичик саноат зонасида тадбиркорлик фаолиятининг 19 та лойиҳаси жорий этилади. Натижада 1300 та иш жойи яратилади. “Fergana global textile” қўшма корхонаси янги линиясининг ишга туширилиши 1500 нафар маҳаллий ёшлар ва хотин-қизларнинг доимий иш билан бандлигини таъминлайди.

Учинчи босқичда маҳалла ҳудудида жойлашган мономарказда 357 нафар ишсиз ва эҳтиёжманд фуқаролар меҳнат бозорида талаб юқори бўлган, доимий даромад келтирадиган касб-ҳунарларга ўқитилади, тадбиркорлик кўникмалари ўргатилади.

Сессияда маҳалладаги ижтимоий ҳолатни тартибга келтириш, аҳолининг ҳаёт даражаси ва сифатини яхшилаш, муҳандислик-коммуникация, йўл-транспорт инфратузилмасини янгилаш бўйича режалаштирилган чора-тадбирлар дастури тақдимоти ўтказилди. Маҳалла фаолларининг мурожаатлари ва таклифларидан келиб чиқиб, ўрганилмай қолган муаммолар бўйича дахлдор ташкилотлар раҳбарларига аниқ топшириқлар берилди. Шунингдек, маҳаллада содир этилган жиноятлар ва ҳуқуқбузарликлар таҳлил қилинди.

***

Қўқон шаҳар 6-болалар мусиқа ва санъат мактаби очиқ майдонида бўлиб ўтган халқ депутатлари шаҳар Кенгашининг навбатдаги сессиясида уч бўғинли “маҳаллабай” ишлаш тизими асосида шаҳарнинг 4-сектори ҳудудидаги “Зилол”, “Райҳон”, “Янгиобод” МФЙларидаги ўрганишлар, аниқланган муаммоларни бартараф этиш, айниқса, ёшлар ва хотин-қизларни иш билан таъминлаш, камбағалликни қисқартиришга қаратилган чора-тадбирлар муҳокама қилинди.

Сессияда кун тартибидаги масала бўйича шаҳар ҳокими М.Усмоновнинг ахбороти эшитилди. Камчилик ва муаммоларни бартараф этиш юзасидан чора-тадбирлар белгиланди.

**Рустам ОРИПОВ.**
**Элёр ОЛИМОВ олган суратлар.**

**Тажриба алмашдилар**



Олтиариқ тумани Файзиобод ММТП ҳудудидаги “Исмоил Нозимобод файз” фермер хўжалигида “Ғалла экинлари парваришида бегона ўт, зараркунанда ва касалликларга қарши уйғунлашган ҳолда курашиш” мавзусида вилоят семинари бўлиб ўтди.

## Ғалла парваришида зарбдор ойлик

-Ғалла экинлари парваришида зарбдор ойлик эълон қилинди, — деди Фарғона вилояти ҳокимининг қишлоқ хўжалик масалалари бўйича ўринбосари Алибек Турсунов. – Ойлик давомида суғориш, ўғитлаш, кимёвий ишлов бериш ишларини сифатли бажариб, мўл ҳосилга замин ҳозирлаш зарур.

Ғалла ҳосили салмоғи бугунги ҳаракатга боғлиқ. Фермерлар мутасадди ташкилотлар мутахассислари билан майдонларда хатлов ўтказишлари керак. Бунда экиннинг ривожига қараб майдонлар учга ажратилади: ҳолати яхши, қониқарли, қониқарсиз. Агротехник тадбирларни амалга оширишда ана шу омиллар ҳисобга олинади. Ҳолати қониқарсиз деб топилган майдонларда зудлик билан қўшимча озиқлантириш, суғориш ўтказилади. Бу билан ниҳолларнинг баравж ўсиши, туплашига шароит яратилади.

Минерал ўғитлар суспензияси экинлар ривожини тезлатади. Бунда майсалар ер устини тўла қоплаганлигига алоҳида эътибор берилади. Чунки сепилган суспензия ўсимлик барги орқали ўзлаштирилади. Суспензия билан озиқлантирилган майдонлар кечиктирилмасдан суғорилади.

Бегона ўтларга қарши курашиш чораларини кўриш муҳим тадбирлардан. Улар 2-3 та чинбарг чиқарганда кимёвий ишлов ўтказиш лозим.

Бошоқли дон экинларида ун-шудринг, сариқ занг, қўнғир занг, сариқ доғланиш касалликлари учрайди. Кимёвий ишлов ўтказилмаса, битта далада ривожланган касаллик минглаб гектар майдонга тарқалиб кетади. Шуни инобатга олиб, кимёвий восита (фунгицид)ларни касаллик тарқалишини кутиб турмасдан қўллаш зарур.

Жорий йилда вилоятнинг 99 500 гектар майдонида ғалла парваришланмоқда. Ҳосилдорликни икки баробар ошириш ният қилинган.

Семинар сўнгида иштирокчилар тадбир ўтказилган фермер хўжалиги ғаллазорларини кўздан кечиришди.

– Шу кунгача ғаллани 3 марта ўғитлаб, 5 марта суғордик, – дейди фермер хўжалиги бошлиғи Козимбек Мадраҳимов. – Айни кунда суспензия сепиш ҳаракатидамиз.

Семинарда ғаллачилик кластерларига минерал ўғит шохобчаларини кўпайтириш, энтомолог-агроном штатларини ташкил этиш, агротехник тадбирларни ўташда отряд усулидан кенг фойдаланиш бўйича топшириқлар берилди.

**А. ТУРСУНОВ.**
**Э. ОЛИМОВ олган суратлар.**

Бугуннинг **МАВЗУСИ**

# ТАРОЗИДАН “УРИЛГАН” ҚОЛИПЛИ НОНЛАР

## Унинг тайёрланиш жараёни, сифати ва оғирлиги белгиланган меъёрларга тўлиқ жавоб берадими?!



Бозорлар, савдо дўконларида кўзимизни қувнатиб, қалбимизга хотиржамлик туйғусини бахш этадиган кенг ассортиментдаги нон маҳсулотлари бугунги фаровон ҳаётни намоён этувчи энг муҳим мезонлар сирасига киради. Бундай мўл-кўлчиликдан ғурурланишимиз табиий, албатта. Шу ўринда истеъмолчи сифатида аҳамият қаратишимиз керак бўлган жиҳатларни ҳам унутмаслигимиз керак. Хўш, қолипли нон ва нон маҳсулотларининг тайёрланиш жараёни, сифати ва оғирлиги белгиланган қонунчилик меъёрларига тўлиқ жавоб берадими?!

Афсуски, бу борада аксарият ҳамюртларимизда истеъмолчилик маданияти етарли эмас. Мақолани тайёрлаш жараёнида Фарғона шаҳри, Қува, Тошлоқ, Фарғона, Олтиариқ, Бувайда туманларида бўлиб, савдо дўконлари сотувчилари, истеъмолчилар ўртасида норасмий сўровномалар ўтказилди.

Маълум бўлишича, қолипли нон сотиб олишда харидорлар аксарият ҳолларда истеъмолчи тариқасида талаб қилиши зарур бўлган муҳим жиҳатларга умуман эътибор қаратмайди.

Вилоят ҳокимлиги ҳузурида ташкил этилган ишчи гуруҳи томонидан бу борадаги мавжуд вазият доимо жиддий таҳлил қилиниб, тадбиркорлик субъектлари ўртасида тушунтириш, мониторинг ишлари олиб борилмоқда. Қонун устуворлигини таъминлаш бўйича изчил саъй-ҳаракатлар амалга оширилаяпти.

**МАЪЛУМОТЛАРГА ҚАРАГАНДА,**
2021 йилнинг биргина январь ойида вилоятда 517 та тадбиркорлик субъектларига махсус фонд орқали имтиёзли нархда нон ишлаб чиқаришга

**4361 тонна,**
макарон ва қандолат маҳсулотлари учун

**4539 тонна** ун ажратилди.
Аммо ўрганишлар давомида **22 та корхонага** **ажратилган** **205,5 тонна** ун қайта ишланмай, бошқа мақсадлар учун сарфлаб юборилгани аниқланди.

**Фарғона шаҳридаги** “Фар шодлик нон неъматлари” хусусий корхонасида 48 тонна, Қўқон шаҳрида жойлашган “Kokand Brend Bakery” МЧЖда **31 тонна**, “Кенагас савдо” ХКда (Бағдод тумани) **10 тонна**, “Олтиариқ савдо инвест” МЧЖда (Олтиариқ тумани) **10 тонна,** “INFINITE PLYUS” оилавий корхонасида (Фарғона тумани) **7 тонна,** “Муртазо Оққўрғон файз” ХКда (Бувайда тумани) **5 тонна** ун нон ишлаб чиқарилмай, сотиб юборилгани фош этилди.

**Марғилон шаҳридаги** “Мидинг ислом нон” ва “Валлей натурал силк” хусусий корхонаси, **Қўштепа туманида** жойлашган “Қўштепа барра нон” ва “Ёзёвон юк транс сервис” МЧЖларининг таъсисчиси Д. Ғ. бўлиб, жорий йилнинг январь ойида ушбу корхоналарга **137 тонна** ун ажратилган эди. Бу корхоналарда нон ва макарон маҳсулотлари ишлаб чиқариш учун ўрнатилган жиҳоз ва ускуналари орқали январь ойида истеъмол қилинган электр энергия ва табиий газ сарфи ўрганилди. **Натижада** бор-йўғи **54,1 тонна** ун қайта ишлангани, **82,9 тонна** ун **бошқа мақсадлар учун** ишлатиб юборилгани маълум бўлди.

Ўрганишлар мобайнида **23 та** корхоналарда савдога чиқарилган бир дона қолипли ноннинг оғирлиги **480 граммдан кам бўлиб**, белгиланган давлат стандарти талабларига жавоб бермаслиги юзасидан тегишли ҳужжатлар расмийлаштирилди. Мисол учун, **Ўзбекистон туманида** фаолият кўрсатувчи “DIONIS” оилавий корхонасида тайёрланган нон **500 ўрнига 400 грамм**, “Best boss” МЧЖнинг қолипли нони **406 грамм чиққан**. “Баҳромали” МЧЖ (**Бешариқ тумани**)да тайёрланган қолипли нон **425 грамм**, “Комил” ХК (**Олтиариқ тумани**) нони **440 грамм**, “Vodiy Lazzat Issiq Non” МЧЖ (**Ёзёвон тумани**) нони **450 грамм**, “Саховат нонлари” МЧЖ (**Фарғона шаҳри**)нинг қолпили нони **454 грамм**, “Миррих” хусусий корхонаси (**Фарғона тумани**)да ишлаб чиқарилган нон атиги **454 грамм** тош босди ва ҳоказо.

**Шунингдек,** ўрганишларда 26 та нон ва макарон маҳсулотлари ишлаб чиқарувчи корхоналарда санитария-гигиена ҳолатлари қониқарсизлиги, ишлаб чиқариш цехлари жорий таъмирга муҳтож эканлиги бўйича тадбиркорлик субъектлари раҳбарлари огоҳлантирилди.

**Фарғона туманида** фаолият кўрсатаётган “Бизнес реал ҳамкор” МЧЖга имтиёзли нархда ҳар ойда 18 тонна ун берилади. Корхонада 3 та доимий иш ўрни яратилган бўлиб, кунига 1 тонна ундан қолипли нон ишлаб чиқарилади.

— Бир кунда ўртача 2500-3000 дона нон тайёрлаб, чакана савдода 1500 сўм, улгуржи нархда 1300 сўмдан сотамиз, — дейди масъулияти чекланган жамият раҳбари Муҳаммад Арслонов.

Шуни афсус билан таъкидлаш кераккии, ишлаб чиқариш цехи, омбордаги ҳолат санитария талабларига жавоб бермайди. Иш жараёнида ходимларнинг махсус кийимда бўлиши, ниқоб тақиши, тозаликка риоя этиши тўлиқ назоратга олинмаган.

**Туман маркази – Водилда** жойлашган “Шуҳрат” хусусий корхонасида (раҳбари Сардор Қундузов) кунига 1,5-2 тонна ун қайта ишланиб, мактабгача таълим, соғлиқни сақлаш муассасаларига етказиб берилади. Қиёслов-ўлчов воситалари жойида, лекин синов тариқасида 10 та қолипли нон оғирлиги ўлчанганда, ўртача **450 граммдан чиқди.**

— Тадбиркорлик субъектларига асосан 600, 500 грамм ҳажмда қолипли нон ишлаб чиқариш учун сертификат берилади, — дейди “Ўзбекистон илмий синов ва сифат назорат маркази”нинг (“Uz TEST” ДУК) Фарғона филиали мутахассиси Одилжон Мўйдинов. — Ҳар бир қолипли ноннинг тарозида 20-25 грамм кам чиқиши табиий йўқотиш ҳисобланади. Ундан ортиғи белгиланган меъёр талабларига риоя этмаслик ҳолати сифатида эътироф этилиши керак.

Шу сабабли ҳамкорликдаги рейд тадбири якунида корхона раҳбари Сардор Қундузов қолипли нон ҳажми камлиги бўйича “Uz TEST” ДУК мутахассислари томонидан қатъий огоҳлантирилди.

“Водил эко” МЧЖга берилган сертификат муддати шу йилнинг 17 февраль куни ниҳоясига етди. Корхона раҳбари Дилшод Толипов маҳсулотдан намуна олган ҳолда “Uz TEST” ДУКнинг Фарғона филиалига ўз вақтида мурожаат қилган. Аммо ўн тўрт иш кунидан ошган бўлса ҳам, сертификат муддатини узайтириш бўйича мурожаатига расмий жавоб берилгани йўқ.

“Uz TEST” ДУКнинг Фарғона филиали мутахассиси Дамир Солиев ушбу масала яқин кунларда ижобий ҳал этилишига ваъда берди. Икки ҳафтадан зиёдроқ вақт мобайнида нон ишлаб чиқара олмаётган тадбиркор кутилмаганда корхонасида юзма-юз бўлиб қолган мутахассиснинг ваъдасига ишонди.

**“Водил“ МФЙда** жойлашган “Мубинахон Муслимахон” оилавий корхонасида (раҳбари Муҳаммаддиёр Абдуваҳобов) тайёрланаётган 500 граммли қолипли нон вазни тарозида тортилганида тўғри чиқди. Аммо нон санитария талабларига зид равишда, машиналар серқатнов йўлда очиқ ҳолда сотиляпти. Савдо дўкони сотувчилари эса гигиеник қўлқоплардан фойдаланиш, ҳимоя ниқоби тақишни гўёки “унутиб” қўйган...

Фарғона тумани ҳокимлиги иқтисодиёт бўлими бошлиғи Отабек Абдураҳимовнинг қайд этишича, туманда қолипли нон ишлаб чиқарувчи **26 та** тадбиркорлик субъектларига имтиёзли нархда бир ойда **210 тонна** ун ажратилади. Ўз навбатида, макарон ва қандолат маҳсулотлари ишлаб чиқарувчиларга махсус фонддан ҳар ойда **100 тонна** ун берилади. Яқинда вилоят ишчи гуруҳи томонидан туманда ўрганишлар олиб борилиб, имтиёзли нархда ун олиб қайта ишлаб чиқаришни амалга оширмаган 3 та тадбиркорлик субъектига ун бериш тўхтатилди.

Вилоят аҳолисини нон ва нон маҳсулотлари билан узлуксиз таъминлаш, фаолият кўлами ва сифатини ошириб бориш доимий устувор вазифа ҳисобланади.

Халқимизнинг “Аввал иқтисод, кейин сиёсат” деган пурмаъно ибораси эски, лекин ҳеч қачон эскирмас ҳаётий ҳақиқатдир!

**Ботир МАДИЁРОВ.**

Президент қарори – АМАЛДА!

# ТУБ БУРИЛИШГА ЮЗ ТУТГАН СОҲА

**Ўзбекистон – олтин қазиб чиқариш бўйича дунёда еттинчи ўринда. Кумушга ҳам бой. Бу қимматбаҳо металлар хом ашё бўлиб хизмат қиладиган заргарлик саноатини ривожлантиришга катта имконият яратади. Қолаверса, туризмнинг тобора тараққий этаётганлиги туфайли миллий заргарлик буюмларига талаб ошиб бораётир. Маҳсулотни хорижга етказиш масаласи ҳам бор.**



Кези келганда, заргарлик юртимизда бир неча минг йиллик тарихга эга эканлигини қайд этиш керак. Ўзбекистон ҳудудида топилган илк заргарлик буюмлари эрамизгача XII асрга мансуб бўлиб, улар Чирчиқ дарёси маншаидан эди. Амударё манбаида эса эрамизгача V асрда яшаган бақтриялик заргарларнинг буюмлари топилган. Сурхондарёнинг қадимий Далварзинтепасида умумий оғирлиги 32 килограммга тенг тилла ва кумушдан ясалган, қимматбаҳо тошлар билан безатилган тақинчоқ, бошқа буюмлар аниқланганда, бу янгилик фан оламида катта шов-шувга сабаб бўлган эди. Бу фактларни заргарлик юртимиз ҳудудида қадим замонларда томир отганлигини ҳамда санъат даражасига етказилган бу ҳунармандчилик турини янада ривожлантириш мавриди келганлигини қайд этиш мақсадида келтирдик.

Одатда заргарлар якка тартибда, ўзларининг мўъжаз устахоналарида ишлашган ва ҳозир ҳам шундай. Ўз ҳунарларини фарзандларига ўргатишган, шу тариқа заргарлар сулолалари юзага келган. Заргарлик заводлари эса XX асрда пайдо бўлган, шу жумладан, Тошкентда ҳам. Бугун эса пойтахтимизда бундай буюмлар ишлаб чиқарадиган иккита корхона бор: "Фонон" ва 1-заргарлик заводи.

Фарғонадаги собиқ "Универсам" магазини биноси "Gold city" МЧЖ тасарруфида бўлиб, унда заргарлик буюмлари сотиладиган қатор дўкон-расталар бор. Лекин уларнинг ҳаммаси ҳам банд этилмаган: тилла буюмларни сотиш билан шуғулланадиган аёллар марказий деҳқон бозори олдида савдо қилишади. Уларнинг "расталари" танг, тирбанд, серқатнов кўча бўйлаб тизилган бўлиб, хунук манзара кўринишида. Савдогар аёллар "Gold city"га ўтиб ишлашса бўларди, лекин улар "эркинлик"ни хуш кўришади. Боз устига ихтисослаштирилган заргарлик марказида ижара ҳақини тўлашга тўғри келади, бу эса буюмларнинг нархи оширилишини тақозо қилади. Тўғри, бозордаги тиллафуруш аёллар билан савдолашиб, нархни тушириш мумкин. Бу, албатта, тиллани хусусий савдогарлардан харид қилишнинг асосий афзал томонидир, лекин улардан сохта ёки нуқсонли тилла буюмни сотиб олиш эҳтимоли ҳам йўқ эмас. Бундай воқеа-ҳодисаларнинг ҳаммамиз бўлмаса-да, кўпчилигимиз гувоҳи бўлганмиз ёки ўқиб-эшитганмиз. Шунинг учун ҳам магазиндан, ёрлиғида оғирлиги, софлик даражаси тамғаси кўрсатилган, пломбаси бор буюмларни харид қилиш маъқул.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг шу йил 22 февраль кунги заргарлик саноатини янада ривожлантириш учун қулай шарт-шароитлар яратишга қаратилган қарори тармоқ ривожида туб бурилишга сабаб бўлиши муқаррар. Ҳужжатда, биринчидан, заргарлик буюмларини ишлаб чиқарувчиларга қимматбаҳо металларни шартнома асосида тўғридан-тўғри сотиб олишга рухсат этилган. Уларга хом ашё Навоий ва Олмалиқ кон-металлургия комбинатлари томонидан ёки товар-хом ашё биржаси орқали 15 фоизлик олдиндан тўловни амалга оширган ҳолда 180 кунга кечиктириб тўлаш шарти билан сотилади. Иккинчидан, заргарлик буюмларига асиллик даражаси ва ишлаб чиқарувчининг тамғалари туширилишига ҳам рухсат этилган.

Қарорда, шунингдек, микрокредитлар ажратиш, чакана савдо расталари ўрнига замонавий савдо дўконлари ташкил этиш кўзда тутилган. Ўзбек миллий заргарлик брендини жаҳонга танитиш мақсадида Дубайда ўтказилиши кўзланаётган "World Expo-2021" кўргазмасида мамлакатимизда ишлаб чиқарилган тилла ва кумуш буюмлар намойиш этилади.

Бундан ташқари, заргарлик саноати билан боғлиқ масалалар билан шуғулланадиган ташкилот – "Ўзбекзаргарсаноати" ассоциацияси таъсис этилди. Хуллас, бу соҳа юксалишга юз тутди. Буни фарғоналик тадбиркор Ҳабибулло Юнусов ҳам таъкидлайди. Заргарликка берила бошланган эътибордан руҳланган ишбилармон шаҳарнинг Бешбола маҳалласидаги собиқ "Мазза" тўйхонаси биносини сотиб олиб, заргарлик фабрикасини очишга жазм қилган.

— Ҳозир бу бинода "Techno city" МЧЖ ишчилари қурилиш-таъмирлаш ишларини олиб боришмоқда, — дейди "Gold city" МЧЖ мутахассиси Бобур Неъматов. – Объектни апрель ойида ишга тушириш режалаштирилмоқда.

Корхонанинг биринчи қаватида офис, заргарлик буюмларини ишлаб чиқариш цехи, сувенир магазини ҳамда шоурум жойлашади. Заргарлик буюмлари ва миллий сувенирларни корхонага ташриф буюрадиган сайёҳлар ҳам сотиб олишлари мумкин бўлади. Иккинчи қават эса Заргарлик академиясига аталган бўлиб, унда уч ойлик курсларда тажрибали мутахассислар ёшларни ҳунарга ўргатадилар. Ўқув курслари 300 нафаргача йигитни ўқишга қабул қилиши мумкин. Янги корхона иш бошлагач, 80 нафар заргар ишга олинади.

— Корхонани очишдан олдин ўн беш йилча бу тармоқ ривожланган мамлакатларда бўлиб, заргарлик соҳасида банд ишбилармонлар тажрибасини ўргандим, — дейди мутахассислиги иқтисодчи бўлган "Gold city" МЧЖ муассиси Ҳабибулло Юнусов. – Орттирилган тажриба ва билим ишлаб чиқаришни кенгайтиришда қўл келади, албатта. Келажакда худди шундай корхонани вилоятимизнинг барча йирик шаҳарларида, Сўх ва бошқа туманларда эса уларнинг шохобчаларини ташкил этишни ният қилганмиз. Бу экспорт имкониятимизни кенгайтиришга ёрдам беради.

Ҳабибулло Юнусовнинг гапларига қараганда, айни пайтда "Gold city" МЧЖ Бирлашган Араб Амирликлари, Россия, Туркия, Ҳиндистон, Италиядаги ҳамкорлар билан музокаралар олиб бормоқда. Натижада, яқин вақтларда учта хориж мамлакат сармоядори инвестиция киритмоқчи. Мақсад эса аниқ: устувор ҳисобланмиш вазифа – Ўзбекистонда ишлаб чиқарилган заргарлик буюмларини чет эл бозорларига чиқариш.

**Тамара ТОШМАТОВА.**

---

Давра суҳбати

**– Қариндош-уруғлар ўртасидаги никоҳнинг салбий оқибатлари нималарда намоён бўлади?**

# СОҒЛОМ АЁЛ – СОҒЛОМ ОИЛА

Давра суҳбатида берилган саволга "Юксак салоҳият" Республика жамоат бирлашмаси Фарғона филиали директори Зулфия Ахунова шундай жавоб берди:

— Уларнинг фарзандларида туғма ирсий касаллик билан туғилиш хавфи юқори бўлади. Бир ёшгача бўлган болалар ўртасидаги ўлим ирсий омиллар билан боғлиқ. Қариндошлар ўртасидаги никоҳ юқорида қайд қилинган салбий оқибатларга олиб келиши мумкин.

Аҳмад Фарғоний номидаги вилоят ахборот-кутубхона марказида "Юксак салоҳият" республика жамоат бирлашмаси Фарғона филиали "Соғлом аёл — соғлом оила" лойиҳаси доирасида "Аёллар дафтари"га киритилган хотин-қизларга тиббиёт соҳасида малакали маслаҳатлар бериш учун давра суҳбати ташкил этилди.

Вилоятимизнинг 8 та ҳудудида репродуктив саломатлик ва ҳуқуқ, эрта ва қариндошлар ўртасидаги никоҳ, кўкрак бези саратони профилактикаси масалаларида тарғибот тадбирлари ўтказилади. 210 та маҳалла фуқаролар йиғини раис ўринбосарлари, ҳамширалар малакасини оширишга алоҳида эътибор қаратилади.

Вилоят онкология диспансери бўлим бошлиғи Рустамбек Аминжонов кўкрак бези саратони ва унинг профилактикаси хусусида сўз юритди.

Мавзуга доир саволларга жавоб берилди.

**Шоҳсанам ЭШМАТОВА.**

---

# ФАРҒОНАДА ИЛК БОР ТЎЛИҚ МАҲАЛЛИЙ ИПАК ҚУРТИ БОҚИЛАДИ

**Фарғона вилоятида жорий йилда 37 минг 259 қути ипак қурти боқиш режалаштирилган бўлиб, илк бор чилги ҳосил тўлиқ маҳаллий уруғлар асосида етиштирилади.**

Мамлакатимизда пиллачилик соҳасини ривожлантириш, ишлаб чиқариладиган маҳсулотларнинг турларини кенгайтириш, шунингдек, пиллачилик тармоғи корхоналарининг экспорт ва инвестиция фаолиятини ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш бўйича комплекс чора-тадбирлар амалга оширилмоқда. Мазкур чора-тадбирлар пилла хомашёси етиштириш ҳажмини ошириш, уни қайта ишлаш ҳисобига экспортбоп ипак маҳсулотлари ишлаб чиқариш ҳажмини кўпайтириш, шунингдек, чекка ҳудудлардаги аҳоли, айниқса, аёллар бандлигини таъминлаш имконини берди. Ҳозирда юртимизда 11 та ипак қурти уруғчилигига ихтисослашган корхона, 2 та наслчилик станциялари фаолият кўрсатмоқда.



Дарҳақиқат, ипак қурти уруғини ишлаб чиқариш бугун муҳим вазифа сифатида белгиланган. Чунки ипак қурти уруғчилиги тармоғи соҳа учун ниҳоятда керак. Хусусан, Фарғона вилоятида мазкур йўналишда азалдан катта тажриба мактаби бор. Бу ердаги мутахассислар яратган «Иқбол-1», «Иқбол-2» каби ипак қурти навлари жуда машҳур. Шунингдек, айни кунларда наслли зотдор ва дурагай навлар яратиш, сифатли уруғ тайёрлаш борасидаги ишлар давом этмоқда.

– Ўзимизда хорижда тайёрланган ипак қурти уруғидан сифати паст бўлмаган уруғ етиштириш йўлга қўйилди, – дейди вилоят «Агропилла» масъулияти чекланган жамияти раиси Мақсуджон Қосимов. – Ҳозирда мамлакатимиздаги ихтисослаштирилган ипак қурти уруғи етиштириш корхоналаридан уруғларнинг намуналари олиб келиниб, синовдан ўтказилмоқда. «Ўзбекипаксаноат» уюшмаси, Ипакчилик илмий-тадқиқот институти ва вилоятимиздаги ипакчиликдаги наслчилик корхонаси мутахассислари ҳамкорлигида бу ишлар амалга оширилмоқда. Эътиборли жиҳати, бу йил фарғоналик пиллакорлар юз фоиз сифатли ва зотдор маҳаллий ипак қуртини парваришлайди.

Ҳозирда бу ерда синов ишлари сўнгги босқичда бўлиб, мутахассисларнинг хулосалари асосида серҳосил, иқлимга мос ва касалликларга чидамли маҳаллий навларни боқишга рухсат берилади.

**ЎзА.**

---

Жараён

# ЯНГИ ЛОЙИҲА, ЯНГИ ИМКОНИЯТЛАР

**Тошлоқ тумани, "Қанжирға" маҳалла фуқаролар йиғини ҳудудида умумий майдони 12 гектар бўлган "Тараққиёт" кичик саноат зонаси қурилишига тамал тоши қўйилди. Бу ерда 100 миллион АҚШ доллари миқдорида янги лойиҳалар амалга оширилади.**




Нефть ва газ конденсати, мураккаб конструкцияли болалар ўйинчоқлари ишлаб чиқариш корхонаси, замонавий логистика марказлари тадбиркорлар томонидан бунёд этилади.

— "New world gazoil" МЖЧ ана шундай истиқболли лойиҳа ташаббускорларидан. Улар қиймати 70 миллион АҚШ доллари миқдорида замонавий лойиҳани ишга туширади. Нефть ва газ конденсатларини қайта ишлашга ихтисослашган корхона қурилиши уч босқичда амалга оширилади. Лойиҳа тўлиқ ишга тушгач, бир вақтнинг ўзида 1881 та янги иш ўринлари яратилади, — дейди туман ҳокими ўринбосари Иқболжон Ўлмасов.

Айни кунда 5 та ҳудудда кичик саноат зоналари ташкил этилиб, қиймати 2,5 триллион сўм бўлган 200 га яқин лойиҳалар амалга ошириляпти. 12 мингдан ортиқ янги иш ўринлари яратилади.

**Расулжон КАМОЛОВ.**
**Шерзод ҚОРАБОЕВ олган сурат.**

---

**Фарғона давлат университети ташаббуси билан вилоят имконияти чекланган шахслар учун ихтисослаштирилган касб-ҳунар мактабида турли йўналишларни ўз ичига олган ёшлар форуми ўтказилди.**

# "ҲАЁТ – БУ НЕЪМАТКИ, ЯХШИЛИК ТЎЛА"

"Ҳаёт – бу неъматки, яхшилик тўла" шиори остида ўтказилган форумда имконияти чекланган ёшлар ўртасида расм чизиш, қўшиқ айтиш, шеърхонлик бўйича танловлар, кўнгилочар ўйинлар, викториналар ташкилланди. Уларда фаол иштирок этган ўқувчи-ёшларга фахрий ёрлиқ ва эсдалик совғалари тақдим қилинди.

Олийгоҳнинг санъатшунослик факультети қошида ташкил этилган "Яхшилик" волонтёрлик клуби аъзолари томонидан тайёрланган мусиқий-бадиий дастур форум қатнашчиларига баҳорий кайфият, ёшлик завқини улашди.

**Мавлуда НАЖМИДДИНОВА,**
**ФарДУ санъатшунослик факультети ўқитувчиси.**

---

# МАРҒИЛОНДА "КУМУШ УЙИ" ҚУРИЛАДИ

## У қандай мезонлар асосида барпо этилиши керак?



**Марғилон шаҳрида Абдулла Қодирийнинг "Ўткан кунлар" асарида тасвирланган тарихий масканлар жуда кўп. Марғилонлик нуронийлар севимли адибимиз асарни ёзиш жараёнида бир муддат Марғилонда яшаганини меҳр билан эслашади. Қозонда оқ ёғнинг доғ бўлиши, тунда қабристонда кечган воқеаларни Қодирий Марғилонда яшаган пайтда бевосита гувоҳи бўлгани учун ҳам ўта жонли тасвирлагани кўп таъкидланади.**

Буни қарангки, асар асосида бадиий фильм суратга олишда Отабек ва Мирзакарим қутидор қўлига тақиладиган кишанларни ҳам марғилонлик тақачи усталар ясаб берган экан...

Марғилон шаҳар ҳокимлиги жорий йилда туризмни ривожлантириш мақсадида "Отабек ва Кумуш уйи"ни лойиҳалаштириш ишларига киришди. Қурилиш ишлари учун шаҳарнинг тарихий маҳаллаларидан бири танланди.

— Бу иш тарихимиз ва халқимизнинг турмуш тарзини яхши биладиган меъморларга топширилиши зарур, — дейди Ўзбекистон Республикаси "Ҳунарманд" уюшмаси Фарғона вилоят бўлими раҳбари Расулжон Мирзааҳмедов. – Боиси ўн тўққизинчи аср ўзбек хонадони архитектура лойиҳаси тажрибали мутахассис томонидан ишлаб чиқилиши керак. Лойиҳа муҳокамасига туризм бўйича мутахассисларни жалб этиш мақсадга мувофиқдир.

Бу Марғилоннинг ўз даврида катта тадбиркори бўлган Мирзакарим қутидорнинг файзли хонадони. Шу маънода, бу гўшани "Отабек ва Кумуш уйи" дея эмас, "Кумушбибининг уйи" сифатида аталиши аслида мантиқан тўғри бўлади.

Хўш, бу лойиҳа тадбиркор томонидан давлат-хусусий шериклик тамойили асосида қуриб берилиб, бир йилдан кейин бошқа мақсадларда фойдаланилмаслигига ким кафолат беради? Сабаби, ҳозир бундай ҳолатлар кузатиляпти.

Расулжон Мирзааҳмедовнинг таъкидлашича, Марғилон шаҳрининг икки минг йиллик тарихини исботловчи "Машад" МФЙда жойлашган "Қизлар мозори" бугун абгор ҳолатда ётибди. Ҳеч ким эътибор бермаганлиги, ўз ҳолига ташлаб қўйилганлиги сабабли оташпарастлар даврига оид археологик ёдгорлигига бир оила жойлашиб олиб, пул ишлаб топиш мақсадида зиёратгоҳга айлантириб олган. Марғилоннинг "Туризм йўналиши китоби" га киритилган Саид Жалолхон масжиди маданий мерос объекти бўлса ҳам тубдан бузиб ташланиб, янги объектга айлантирилган. Бугунги кунда "Халқ банки"нинг шаҳар филиали фаолият кўрсатаётган бино маданий мерос объекти эканлигига қарамай кўриниш фасади замонавийлаштирилди. Натижада унинг тарихий аҳамиятига путур етди.

Кўҳна кент замонавий мезонлар асосида ривожланиши яхши. Аммо ушбу жараёнда миллий қадрият ва анъаналаримизга асло зиён етмаслиги зарур.

**Ботир МАДИЁРОВ.**

# Yoshlar Sahifasi

3-son



## YANGI TIZIMNING FARG'ONACHA MANZARASI

**Yoshlar bilan ishlashning yangi mexanizmi ilk bora Farg'ona tajribasi sifatida amaliyotga tatbiq etilmoqda. Bu tizim nimasi bilan afzal? U yoshlarga nima beradi? Yangi tizimning Farg'ona yoshlari hayotidagi ilk samaralari haqida Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi boshlig'i Muhammadamin G'ANIYEV bilan suhbatlashdik.**

— Bugungi yoshlar bilan qilinadigan ishlarning aniq manzarasi — platformasi bor. Ya'ni, bugun qayerda, qancha yoshlar yashaydi, nima bilan band, qanday muammo ularni o'ylantiryapti? Bular manzilli o'rganildi, "Yoshlar daftari"ga qayd etildi. Yoshlarning muammolarini bartaraf etish, tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash masalasini 4 ta sektor kesimida hal etish bo'yicha aniq dastur ishlab chiqildi. Qolaversa, bugun yoshlar siyosatini amalga oshirishga barcha birdek mas'ul.

**MANA, SENGA DAROMAD MANBAI**

Hozirda viloyatimizda 1 mln. 261 mingdan ziyod yoshlar istiqomat qilsa, ulardan 81 ming nafarining ishsizligi xatlov asosida aniqlangan. Demak, oldimizda ularning bandligini ta'minlashga ko'maklashish vazifasi turibdi. Bu borada "Har bir yoshga bir gektar", "Ustoz-shogird", "Tadbirkor — elga madadkor" loyihalarini amalga oshirish, shuningdek, viloyatda unikal, ya'ni hunarning biror turiga ixtisoslashgan mahallalarni ko'paytirish orqali yoshlar bandligini ta'minlashda samarali natijalarga erishildi.

Bugungi kunga qadar har bir yoshga 10 sotixdan 25 sotixgacha, jami 11 ming gektar qishloq xo'jaligi yerlari ajratildi. Bundan tashqari, "Har bir yoshga bir gektar" loyihasi doirasida 481 gektar yer maydoni "Yoshlar daftari"ga kiritilganlarga bo'lib berildi. Yerga ega bo'lganlarning aksariyati bir necha yillar xorijda mehnat muxojiri bo'lgan, o'z qishlog'ida ish topolmay yana chetga chiqib ishlashni rejalashtirib turganlar edi. Quvonarlisi, yer berish tizimi orqali viloyatda qariyb 36 ming yoshning bandligiga erishiladi.

O'tgan 4 oy mobaynida Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi tomonidan 679 nafar yoshlar tadbirkorlikka o'qitilib, ularning 100 nafari o'z biznesini yo'lga qo'yishi uchun imtiyozli kredit olishni kafolatlovchi sertifikatlarni olishdi.

Yoshlar bilan ishlashning yangi tizimi Farg'onada o'zining ijobiy samarasini ko'rsatayotganini e'tirof etishimiz kerak. Bu tizimning muvaffaqiyati nafaqat o'zini, balki 100-200 nafarlab tengdoshlarini ham ish bilan ta'minlayotgan oddiy qishloq yigitlari taqdirida o'z ifodasini topmoqda. Bunga havas qilsa arzigulik amaliy misollarimiz juda ko'p.

**YOLLANMA ISHCHIDAN KOOPERATSIYA RAHBARIGACHA**

Oltiariq tumanilik Mavsumjon Umarov uch yil avval yollanma ishchi edi. Lekin dehqonchilikka yaxshigina uquvi bo'lgan qishloq farzandi bugun tumandagi yirik kooperatsiyaning boshqaruvchisi. U tumandagi 20 yildan beri qarovsiz yotgan, tashlandiq yerni obod qildi, "Mavsum agrologistika" yoshlar kooperatsiyasini tashkil etdi. Issiqxonalarni yoshlarga foydalanish uchun ajratdi. Dastlab 54 nafar ishsiz (aksariyati Rossiyaga ishlash uchun ketish istagida bo'lgan)lar bilan faoliyat boshlagan Mavsumjon aka bugun 200 nafarga yaqin yoshlarni kooperatsiya atrofida birlashtirdi. Dastlabki yildayoq issiqxonada mehnat qilib, daromad olgan Nuriddin Boltayev singari yuzlab oltiariqlik yoshlar shu yerda mehnat bilan band. Mazkur kooperatsiya kelgusida hududdagi 300 gektar qir yerlarni o'zlashtirishni, yana minglab ish o'rinlari yaratishni maqsad qilgan. Qolaversa, Mavsumjon Umarov boshchiligida 37 gektar maydonga uzum ko'chatlari o'tqazilib, parvarishlanyapti.

**TADBIRKORNING BUGUNI**

29 yoshli tadbirkor Otaxon Xayrullayev viloyat hokimligi, Yoshlar ishlari agentligi ko'magi bilan o'z biznesini yaratdi. 8 yil davomida Xitoyning nufuzli kompaniyalaridan birida faoliyat ko'rsatib kelgan o'zbek yigiti yurtimizdagi yoshlarga yaratilgan imkoniyatlarni to'g'ri anglab, Vataniga qaytgan. Farg'ona shahrida 40 xonali zamonaviy "Tantana hotel" mehmonxonasini tashkil etib, 25 nafar yoshni ish bilan ta'minladi. Hozirda Farg'ona kichik sanoat zonasida 1,2 gektar maydonda loyiha qiymati 1,2 mln. dollarlik issiqxonalar uchun plyonka va boshqa zarur konstruktsiyalarni ishlab chiqarishga mo'ljallangan korxonani qurib bitkazmoqda. Yil yakuniga qadar qurilish-montaj ishlari yakunlanadi, 300-350 ta ishchi o'rni yaratiladi.

Toshloqlik Husniddin Ismoilov "Yoshlar–kelajagimiz" jamg'armasining 320 mln. so'mlik kredit mablag'lari asosida mebel va mebel mahsulotlarini ishlab chiqaradigan sex faoliyatini yo'lga qo'ydi. O'nlab tengdoshlarini hunarli, ishli qildi. Tumanda qad rostlab turgan "Yoshlar markazi"ning eshik va romlarini yosh tadbirkor tayyorlab, yetkazib bergan.

Ular kabi yaratilayotgan sharoitdan unumli foydalanib, g'ayrat va shijoat ko'rsatayotgan yuzlab, minglab yoshlarimiz bor.

Muhtaram Prezidentimizning ta'biri bilan aytganda, yoshlar – bebaho xazina. Bu xazina esa yuksak istiqbolli maqsadlar yo'lida sarflanishi, ya'ni mehnat qilishi, ishlashi kerak. Zotan, siz-u bizning qalbimizda "Yangi O'zbekistonni yoshlar bilan bunyod etamiz", degan yuksak ishonchni oqlash maqsadi har kuni uyg'oq turishi shart.



Xorijdagi TENGDOSHIM

## BIZGA HAVAS QILISHSIN

**Germaniyaning Frankfurt shahridagi Yevropa Viadrina universiteti "Xalqaro iqtisodiyot administratsiyasi" yo'nalishiga bir necha bosqichda o'tkazilgan sinovlarda muvaffaqiyatli ishtirok etib, grant asosida o'qishga qabul qilindim. Bugun AQSh, Rossiya, Meksika, Ispaniya, Ukraina, Turkiya, Koreya Respublikasi singari davlatlardan kelgan tengdoshlarim bilan birga tahsil olayapman.**



Uyerdagi vatandosh do'stlarim, o'zbekistonlik talabalar bilan birga milliy bayramlarimizni nishonlaymiz, universitet bo'ylab "O'zbekiston kunlari"ni e'lon qilib, bayroqchalar, milliy libos va taomlarimizdan ulashamiz.

Vatanimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, ayniqsa, taraqqiyotimizning bugungi bosqichida yoshlarga va ularning ta'lim-tarbiya olishlariga qaratilgan alohida e'tiborni to'lqinlanib so'zlab beramiz. Bu esa ona yurtimizga bo'lgan muhabbatimizni namoyish qilish barobarida o'zbek yoshlarining milliy g'ururini ko'rsatishimizga imkon yaratmoqda.

Xalqaro iqtisodiy bilim va tajribalarni puxta o'rganib, mamlakatimizni ishlab chiqarish, sanoat, texnologiya sohasida ilg'or davlatlar safiga olib chiqishga munosib hissa qo'shish – eng katta maqsadim.

Yaqinda "Viadrina Botschafter" nomli xalqaro loyihada g'olib bo'ldim. Bu orqali Yevropa Viadrina universitetini Vatanimdagi targ'ibotchisiga aylandim.

Bugun 5 tilda – nemis, rus, ingliz, ispan va turk tillarida erkin so'zlashaman, hozirda arab tilini o'rganayapman. Orzuyim – Vatanim, ota-onam ishonchini oqlash. Men kabi o'zbek yigit-qizlarining yurtimiz va jahonda erishayotgan yutuqlarini ko'rib, dunyo yoshlari bizga havas qilsin, deyman.

**Shohruxsora TOSHMUHAMMEDOVA,**
**Yevropa Viadrina universiteti 4-bosqich talabasi.**

Shunday maskan bor



**"Zarnigor" chim ustida xokkeychi qizlar jamoasining dovrug'i respublikaga mashhur. Mohir sportchi Zarnigor Abduhamidova sardorligida ko'p marta Osiyo va jahon chempionligiga erishgan Diyora Ro'ziboyeva, Nodira Jo'rayeva, Xurshida Yunusaliyeva singari qizlar, shubhasiz, Farg'ona sportining malikalari.**

## CHEMPIONLAR O'QIYOTGAN MAKTAB

Jamoaning o'tgan o'n yil ichida erishgan yutuqlari haqida uzoq gapirish mumkin. Biroq, hozir e'tiborimizni tortgani, ular kabi chempion yoshlarni tarbiyalayotgan Qo'shtepa tumanining Shomirza qishlog'idagi 23-o'rta ta'lim maktabi bo'ldi.

— Faxrlanib aytamizki, "Zarnigor" jamoasi a'zolari — bizning maktabimiz o'quvchilari, — deydi maktab direktori Rahimjon Sobirov. — Ayni paytda ular Xorazmning Urganch shahrida o'tkazilayotgan respublika chempionatida ishtirok etishyapti. Qizlarimizning professional faoliyatini qo'llab-quvvatlash, o'z ustida ishlashlari uchun yetarli sharoit yaratib berish masalasi viloyat hokimining alohida e'tiboriga olinganidan so'ng qizlarimizning shijoati yanada balandladi.

Muhammadumar Qayumov — kamondan o'q otish sport turi bo'yicha O'zbekiston chempioni.

Abduvahob Murodov – yosh akrobat. Joriy yilning 10-fevral kuni Toshkentda o'tkazilgan respublika chempionatida akrobatika sport turi bo'yicha 1-razryad sohibi bo'ldi.

Maktabda millionlar o'yini ishqibozlari ko'p, yaqinda tumandagi sektorlar o'rtasida o'tkazilgan yoshlar futbol musobaqasida 23-maktabning to'psurar o'smirlari g'oliblikni qo'lga kiritishdi.

Aytgancha, tumandagi Yangido'kon qishlog'idagi 15-o'rta ta'lim maktabi ham sportning voleybol turi bo'yicha respublika chempionlari o'qiyotgan maktab sifatida e'tiborga tushgan.

## QUTLUG' TO'YGA TO'YONAM



**Bolaligimdan adabiyotga, she'riyatga mehr qo'yib ulg'aydim. Ona shahrim – Marg'ilondagi adabiy muhit, ulug' ustozlar ishtirokidagi anjumanlar, yosh ijodkorlarning mushoiralari she'rdan-she'rga charxlanib borishimga turtki bo'ldi. "Hurlik sadosi" nomli ilk she'riy kitobim nashr etildi.**

O'tgan yillar davomida "Yangi avlod" respublika bolalar ijodiyoti festivali, "Kamalak yulduzlari", "Yuksak ma'naviyatli avlod", "Yil sardori", "Orasta qizlar" singari o'nlab ko'rik-tanlovlarda muvaffaqiyatli ishtirok etdim. Eng muhimi, yangi-yangi ijodkor do'stlar orttirdim, eng yaxshi sovg'a – kitob jamlanmalari egasi bo'ldim. O'zbek va jahon adabiyotining nodir namunalarini o'zida jamlagan shaxsiy kutubxonamni yaratdim.

Hozirda Farg'ona davlat universiteti talabasi, O'zbekiston Yoshlar ishlari agentligi tasarrufidagi "Yosh liderlar" akademiyasi a'zosiman.

Ayni kunlarda "Vatan deb yuksalar yuragim" nomli ona yurt madhi, shukronalik, yoshlar ijodi va adabiyotga e'tibordan mamnunlik ruhidagi turkum she'rlar to'plamini tayyorlashga kirishdim. O'zbek va rus tillaridagi she'rlarim jam bo'lgan ushbu kitob Vatanimiz mustaqilligining 30 yillik to'yiga mening to'yonam bo'ladi.

**Shahnoza ABDUBANNOBOVA,**
**"Yurt kelajagi" respublika ko'rik-tanlovi g'olibi.**

Agentlik FAOLIYATIDAN

### KITOBXONLAR PARVOZI

Erkin Vohidov nomidagi ona tili va adabiyot hamda xorijiy tillarga ixtisoslashtirilgan maktab-internatda «Yosh kitobxon» respublika ko'rik-tanlovining viloyat bosqichi o'tkazildi.



Unda O'zbekiston tumanilik Muhammadfozil Ismoilov 10-14 yosh toifasi, uchko'priklik Samandar Yusupov 15-19 yosh toifasi, qo'shtepalik Nodira Toshaliyeva 20-30 yosh toifasi bo'yicha g'oliblikni qo'lga kiritib, kitoblar jamlanmasi va zamonaviy planshet bilan taqdirlanishdi. Ular tanlovning respublika bosqichida ishtirok etishadi.

### 303 NAFAR ISHSIZ YOSHGA YER BERILDI

Uchko'prik tumanida mahalla fuqarolar yig'inlarining tavsiyasi va ishchi guruh a'zolarining «mahallabay» o'rganishlari asosida «Yoshlar daftari»ga kiritilgan ishsiz, nogironligi bor va ijtimoiy ko'makka muhtoj 303 nafar yosh yerli bo'ldi.

Abbos Alimqulov ham o'n yildan ziyod Rossiya va Qozog'iston davlatlarida ishlagan. Bir yildirki, ishsiz. Bugun esa 20 sotix yer egasi. Endilikda u kabi yigit-qizlar oila a'zolari ko'magida dehqonchilik qilib, yil davomida daromadli bo'lishadi.

### "LIDERLAR AKADEMIYASI" FAOL QIZLARNI CHORLAYDI

Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasida Quva tumanilik bir guruh qizlar va «Liderlar akademiyasi» a'zolarining davra suhbati tashkillandi.

Samimiy muloqot, istiqbolli rejalar, peshqadam ayollar faoliyati haqidagi nutqlar ishtirokchilarga katta motivatsiya berdi, ularni o'z muvaffaqiyat formulasini tuzishga undadi.

### 13 TA MUROJAAT YECHIM TOPISHI KERAK

Quvasoy shahridagi "Zebuniso" madaniyat uyida yoshlar bilan sektor rahbarlari ishtirokida qabul o'tkazildi. Unda quvasoylik yoshlarning 21 ta murojaati ko'rib chiqilib, ularning 4 tasi shu joyning o'zida ijobiy yechim topdi, 4 tasi bo'yicha qonuniy tushuntirishlar berildi. 13 ta murojaatga qo'shimcha o'rganishlar belgilandi.Ularda murojaatchi yoshlar tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yer maydoni va imtiyozli kredit olish, tomorqada issiqxona barpo etish, chorvachilikni rivojlantirish kabi maqsadlarini amalga oshirishga amaliy ko'mak so'rashgan.

### MARG'ILONLIK YIGIT-QIZLAR OLIY TA'LIM SARI

Davlat test markazi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra, 2019-yilda respublikadagi 203 ta hududlar kesimida maktab bitiruvchilarining oliy o'quv yurtlariga kirish ko'rsatkichlarida Marg'ilon shahri 154-o'rinni, viloyat miqyosida esa 19 ta hudud ichida 17-o'rinni egallagan. O'tgan yili shahardagi jami 3670 nafar abituriyentdan 272 nafari yoki atigi 7,4 foizi oliy o'quv yurtlariga qabul qilingan, xolos.

Shahar yoshlarini bilim olishga rag'batlantirish, ularni oliy ta'limga kengroq jalb qilish bo'yicha maktab bitiruvchilarining 50 nafari tanlab olinib, ularni oliy o'quv yurtlariga kirish imtihonlariga repetitorlik markazlari yordamida tayyorlash loyihasi ishlab chiqildi.

"Ideal progress education" o'quv markazi, "Ferghana Global textile" paxtachilik klasteri hamda boshqa tadbirkorlar bu borada hamkorlik va homiylik qilish istagi bilan chiqdi.

Mazkur loyiha bo'yicha repetitorlik kurslariga tanlab olingan yoshlarni ruhlantirish, ularni o'qishga intilishlarini oshirish maqsadida Marg'ilon shahridagi "Raqamli texnologiyalar markazi"da Abdulla Avloniy nomidagi Ilmiy-tadqiqot instituti rektori Ayubxon Radjiyev, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Doniyor G'aniyev ishtirokida ochiq muloqot o'tkazildi.

### "MUNOZARA" DAVOM ETADI

Bahs-munozara, erkin fikrlashga ishtiyoqmand yoshlarimiz uchun «Munozara» klubi faoliyatiga yana start berildi.




Klub a'zolarining dastlabki uchrashuvida "Yoshlar va demokratiya" mavzusi o'rtaga tashlandi. Yangi jamoalar tuzilib, navbatdagi bahslar uchun mavzular belgilandi.

### YANA 16 NAFAR TADBIRKOR ISH BOSHLAYDI

O'zbekiston Yoshlar ishlari agentligi Marg'ilon shahar bo'limi va Tadbirkorlikka ko'maklashish markazi tomonidan «Yoshlar daftari»ga kiritilgan, «Yoshlar: 1+1» loyihasi doirasida tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan bepul o'quv kurslarida 16 nafar yoshlar maxsus sertifikat bilan taqdirlandilar. Ular endilikda "Mikrokreditbank" ATB tomonidan imtiyozli kredit olib, o'z tadbirkorlik faoliyatini boshlaydi.

**Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi Matbuot xizmati.**

Oliy ta'lim muassasasida

## So'z va musiqaning mushtarak sehri

**Qo'qon musiqali drama teatrida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Farg'ona mintaqaviy filiali talabalaridan tashkil topgan «Yangi O'zbekistonning yoshlar ansambli» ijrosida «Ulug'larni yod etib» deb nomlangan konsert dasturi namoyish etildi.**

Unda Hazrat Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Nodirabegim va Muhammad Aminxo'ja Muqimiy kabi mumtoz shoirlar g'azallariga bastalangan dilbar qo'shiqlar ijro etildi.

Fozilbek Habibullayev, Qobiljon Ergashev singari bir guruh iqtidorli talabalar tomonidan kuylangan "Ko'rmadim", "Ey do'st", "Bo'lmish", "Ne bo'ldi", "Yor vasli", "Oydin kechalar" kabi dilrabo taronalar yig'ilganlar qalbiga so'z va musiqaning birgalikdagi kuchi, ohanrabosini namoyish qildi.

**Ilhomjon HASANOV,**
**O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Farg'ona mintaqaviy filiali yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i.**



**Sahifa materiallarini Dilnavoz QO'LDOSHEVA tayyorladi.**

XalqBanki
Реклама ўрнида

Соғлом турмуш тарзи

# ФУТБОЛ МАЙДОНИДА – БАНК ХОДИМЛАРИ




**Шу йилнинг 6-7 март кунлари Фарғона вилоятида Ўзбекистон Республикаси АТБ "Халқ банки" ташаббуси билан мини футбол бўйича мусобақа ташкил этилди.**




## "ХАЛҚ БАНКИ" БОШҚАРУВИ РАИСИ КУБОГИ – 2021"

**мусобақаси ғолиблиги учун банкнинг марказий аппарати ҳамда вилоят филиалларининг 16 та жамоаси ўзаро баҳс олиб борди.**

Фарғона шаҳрининг Қиргули мавзесида жойлашган мини футбол стадионларида бўлиб ўтган ўйинлар ҳаяжонли дақиқалар, кескин курашларга бой тарзда ўтди. Мусобақа жараёнида банк ходимлари ўртасида соғлом турмуш тарзини тарғиб этиш ишлари яхши йўлга қўйилгани мухлисларни беҳад мамнун этди.

АТБ "Халқ банки"нинг Тошкент шаҳар филиали жамоаси барча рақибларини мағлубиятга учратиб, фахрли биринчи ўринни қўлга киритди. Фарғона вилояти филиали жамоаси иккинчи ўринга сазовор бўлди. Хоразм филиали жамоаси шоҳсупанинг учинчи поғонасидан ўрин эгаллади.

Ғолибларни АТБ "Халқ банки" бошқаруви раиси ўринбосари Д. Акрамов ҳамда Марказий банкнинг Фарғона вилояти бош бошқармаси бошлиғи Т. Қундузов қутлади.

Мусобақа ғолибига кўчма кубок тантанали равишда топширилди. Шунингдек, футбол турнирининг фаол иштирокчилари эсдалик совғалари билан тақдирландилар.

**Ботир МАДИЁРОВ.**
**Суратларни**
**Шерзод ҚОРАБОЕВ олган.**







Чиқитсиз ўсимлик

БАҒДОД ТУМАНИдаги Муллавали, Истироҳат, Қароқчитол, Миришкор, Бардон, Чўлиюнус қишлоқлари аҳолиси буғдойдан бўшаган ерларда такрорий экин сифатида супурги жўхори ўстирадилар. Маҳсулотларини нафақат ички бозорларимизда, балки хорижий давлатларга ҳам сотишмоқда.



# ХОРИЖГА СОТИЛАЁТГАН СУПУРГИ

## ТОЛАСИ ТЎҚИЛИШИНИ БИЛАСИЗМИ?

– Супурги етиштириш билан 10 йилдан буён шуғулланиб келаман, – дейди Миришкор қишлоғилик Зафаржон Имомалиев. – Бу экинни чиқитсиз ўсимлик деса бўлади. Толасидан супурги тайёрланса, дони чорва ҳайвонларига ем, пояси тандирга ўтин бўлади.

– Бир гектар ердан қанча даромад олиш мумкин? – сўраймиз ундан.

– Ҳосил яхши бўлса, гектаридан икки минг дона супурги чиқади. Ҳозир бозорларимизда супургининг донаси 10 минг сўмдан 15 минг сўмгача. Демак, экинни ўзи етиштириб, боғлаб сотган одам 20-25 миллион сўм атрофида даромад қилиши мумкин. Бунга дони, ўтин сифатида ишлатиладиган поясини ҳам қўшсангиз, фойда янада кўпаяди.

Харажатларга қизиққанимизда, уларни экиннинг донидан тайёрланадиган ем қоплаб кетишини суҳбатдошимиз яшириб ўтирмади.

Маҳмуджон Ғаниев ярим тайёр маҳсулотни қайта ишлаб, хорижга экспорт қилиш билан шуғулланар экан.

– Деҳқонлардан барги ва донидан тозаланган ярим тайёр маҳсулотни сотиб оламиз, – дейди у. – Дасталаб боғлаш билан эркаклар шуғулланади. Тўқиш (толасини ёйиш) аёллар зиммасида. Бу ишларга 30-35 нафар ҳамқишлоғимизни жалб этганман. Бир йилда 50-55 минг дона супурги экспорт қиламиз. Ҳамкорларимиз Украина, Молдова давлатларида.

Маҳмуджон гап орасида экспортбоп супургилар одатдагидек сим билан эмас, сунъий ип билан боғланиши, оғирлиги тенг баробар кам бўлиши, толаси 2 йўлдан 4 йўлгача тўқилиши (толасини ёйиш учун)ни ҳам айтиб ўтди.

Супурги толасининг тўқилиши янгилик эди. Шу боис тўқувчи аёллар ишлаётган хонадонга йўл олдик.

Ҳовлига кираверишдаги айвонга тайёр супургилар 100-200 тадан қилиб териб қўйилибди. Маҳмуджон улардан бирини қўлига олиб, тушунтириш берди:

– Хотин-қизларимиз қўлида сайқал топаётган супургилар шулар. Кўриб турганингиздек, булар одатдаги супургилардан фарқ қилади. Қўлимдаги 3 йўл тўқилибди. Толанинг узун-қисқалигига қараб, тўқув йўллари озайиши ёки кўпайиши мумкин. Тўқиш толалар синишининг олдини олиб, супургидан фойдаланиш муддатини узайтиради.

– Кунига 80-100 та супурги тўқийман, – дейди ўзини Шоҳиста Алижонова деб таништирган аёл. – Ҳар бир тўқилган супурги учун 500 сўмдан 600 сўмгача ҳақ оламиз.

Супурги жўхорини ўриш, юқори қисмини кесиб олиш, барги, донидан тозалаш, дасталаш, боғлаш, тўқиш каби барча ишлар қўлда бажарилади. Аҳоли ҳалол меҳнат қилиб даромад топаётганидан мамнун.

**Асқарали ТУРСУНОВ.**



## "Қува дон маҳсулотлари" АЖ

**Жамиятнинг 2020 йилдаги молиявий-хўжалик фаолияти якуни бўйича акциядорларнинг навбатдаги умумий йиғилиши 2021 йил 29 март куни соат 14:00 да Фарғона вилояти, Қува тумани "Қува дон маҳсулотлари" АЖ мажлислар залида ўтказилишини маълум қилади.**

**КУН ТАРТИБИДА:**

1. Умумий йиғилиш регламенти ва саноқ комиссияси таркибини тасдиқлаш.
2. Жамият кузатув кенгашининг бир йиллик фаолияти бўйича ҳисоботини тасдиқлаш.
3. Жамиятнинг 2020 йилдаги ишлаб чиқариш ва молиявий-хўжалик фаолияти якунлари бўйича ижро органининг ҳисоботини тасдиқлаш.
4. Тафтиш комиссиясининг 2020 йилдаги фаолияти якунлари бўйича ҳисоботини тасдиқлаш.
5. Жамиятнинг 2020 йилги баланси, молиявий ҳисоботини тасдиқлаш.
6. 2020 йил якуни бўйича ташқи аудитор хулосасини тасдиқлаш.
7. 2021 хўжалик йилида жамият фаолиятини текшириш учун аудитор ташкилотини танлаш ва унга тўланадиган хизмат ҳақи чегарасини белгилаш.
8. Жамиятнинг 2020 йил якуни бўйича олган соф фойдаси тақсимотини тасдиқлаш.
9. Жамиятнинг 2021 йил учун тузилган бизнес-режасини тасдиқлаш.
10. Жамият бошқарув раиси билан меҳнат шартномасини тузиш.
11. Кузатув кенгаши таркибига аъзоларни қайта сайлаш.
12. Тафтиш комиссияси таркибига аъзоларни қайта сайлаш.
13. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 24 августдаги 4426-сонли қарори талабларига мувофиқ 2020 йил якуни бўйича жамиятнинг ишлаб чиқариш, маҳаллийлаштириш, саноатда кооперация алоқаларини кенгайтириш масалалари бўйича директорнинг ҳисоботини эшитиш.
14. Корхонада харидлар жараёнининг шаффофлиги асослиги, шу жумладан, маҳаллий маҳсулотларнинг сифат ва нарх бўйича белгиланган параметрларга мувофиқлигини ҳисобга олган ҳолда импорт харидларини, шунингдек, валюта ресурсларидан самарали фойдаланиши тўғрисида ташқи аудит хулосасини кўриб чиқиш.
15. Корпоратив бошқарув кодекси талабларига мувофиқ жамиятда 2020 йил якуни бўйича мустақил ташкилот томонидан ўтказилган корпоратив баҳолаш бўйича хулосасини тасдиқлаш.
16. Давлат рўйхатидан чиқарилиб, фаолияти тугатилган юридик шахсларнинг кўп йиллардан буён ундирилмасдан келинаётган умидсиз, муддати ўтган дебитор қарздорликларини юридик шахс тугатилганлиги ҳақидаги тегишли ҳужжатларга асосан жамият балансидан чиқариш.
17. Талаб қилинмаган, даъво муддати ўтган дивидендларни жамият фойдасига олиш.
18. Йил якуни бўйича кузатув кенгаши ва тафтиш комиссияси аъзоларини моддий рағбатлантиришни тасдиқлаш.

**Акциядорлар реестрининг ёпилиш санаси 2021 йил 1 март ва 23 март. Акциядорларни рўйхатга олиш 2021 йил 29 март куни соат 13:00 да Фарғона вилояти, Қува тумани "Қува дон маҳсулотлари" АЖ мажлислар залида амалга оширилади.**

**Акциядорлар шахсини тасдиқловчи ҳужжат, ишончли вакиллар томонидан тегишли тартибда расмийлаштирилган ишончнома билан келишлари сўралади. Умумий йиғилишга боғлиқ ҳужжатлар билан "Қува дон маҳсулотлари" АЖ қимматли қоғозлар бўлимида танишиш мумкин.**

**Телефон: 90 301-95-90.**

**Кузатув кенгаши.**

## МУҚИМИЙ НОМИДАГИ ҚЎҚОН ДАВЛАТ ПЕДАГОГИКА ИНСТИТУТИ ҚУЙИДАГИ ВАКАНТ ЛАВОЗИМЛАРГА ТАНЛОВ ЭЪЛОН ҚИЛАДИ

**Кафедра доценти лавозимига:**
1. География ва иқтисодий билим асослари кафедраси.
2. Математика-информатика кафедраси.
3. Тарих кафедраси.

**Кафедра катта ўқитувчиси лавозимига:**
1. Ўзбек тили кафедраси.
2. Масофавий таълим кафедраси.
3. Бошланғич таълим кафедраси.
4. Миллий ғоя, маънавият асослари ва ҳуқуқ таълими кафедраси.
5. Жисмоний маданият кафедраси.

**Кафедра ўқитувчиси лавозимига:**
1. Масофавий таълим кафедраси.
2. Факультетлараро чет тиллар кафедраси.
3. Тарих кафедраси.
4. Педагогика-психология кафедраси.
5. Ижтимоий фанлар кафедраси.
6. Ўзбек адабиёти кафедраси.

**Кафедра стажёр-ўқитувчи лавозимига:**
1. Факультетлараро чет тили кафедраси.
2. Инглиз тили ва адабиёти кафедраси.
3. Математика-информатика кафедраси.
4. Физика ва астрономия кафедраси.
5. Педагогика-психология кафедраси.
6. Мактаб менежменти кафедраси.
7. Мактабгача таълим кафедраси.
8. Тасвирий санъат ва муҳандислик графикаси кафедраси.
9. Масофавий таълим кафедраси.

Танловга ҳужжатлар қабул қилиш муддати эълон чиққан кундан бошлаб 1 ой.

**Мурожаат учун манзил:** Қўқон шаҳар, Турон кўчаси, 23-уй. Ректорат биноси, 6-хона.

**Институт кенгаши котиби.**

Қувасой шаҳар, Суфон қишлоғида жойлашган "Беҳизор обод диёр" хусусий корхонаси номига берилган думалоқ муҳр йўқолганлиги сабабли **БЕКОР ҚИЛИНАДИ.**

Фарғона саноат касб-ҳунар коллежини (ҳозирги Фарғона шаҳар касб-ҳунарга ўқитиш маркази)ни 2014 йилда тамомлаган Хошимов Шердор Расул ўғли номига берилган К 3615111 рақамли диплом йўқолганлиги сабабли **БЕКОР ҚИЛИНАДИ.**

Фарғона шаҳар 27-ўрта таълим мактабини 2005-2006 ўқув йилида тамомлаган Камолов Сардор Абдурахимович номига берилган U 2229928 рақамли шаҳодатнома йўқолганлиги сабабли **БЕКОР ҚИЛИНАДИ.**

Фарғона политехника институти академик лицейи (собиқ Фарғона политехника институти қошидаги Ёрмозор академик лицейи)ни 2013 йилда тамомлаган Пак Соҳиб Умидович номига берилган L 178993 рақамли диплом йўқолганлиги сабабли **БЕКОР ҚИЛИНАДИ.**

Фарғона касб-ҳунар мактаби (собиқ Фарғона 2-ижтимоий-иқтисодиёт коллежи)ни 2011 йилда тамомлаган Ахроров Жамшид Сунбулжонович номига берилган К 2151912 рақамли диплом йўқолганлиги сабабли **БЕКОР ҚИЛИНАДИ.**



МУАССИС: ФАРҒОНА ВИЛОЯТИ ҲОКИМЛИГИ

Вилоят ҳокимлигининг расмий веб-сайти www.ferghana.uz

Бош муҳаррир: Муҳаммаджон ОБИДОВ

Газетадан материал кўчириб босилганда «Фарғона ҳақиқати»дан олинди» деб кўрсатилиши шарт.

Офсет усулида А-2 форматда (4 бет) чоп этилди. 2007 йил 9 январда Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги Фарғона вилоят бошқармасида 12-001 рақами билан рўйхатдан ўтган.

Газета таҳририятига юборилган қўлёзма ва суратлар қайтарилмайди.

*Газета «Полиграф-Пресс» МЧЖ босмахонасида таҳририятнинг оригинал макети асосида офсет усулида чоп этилди. Манзили: Марғилон шаҳри, Туркистон кўчаси, 236-«б» уй.*

*Босишга топшириш вақти: 19.00. Топширилди: 19.00.*

Буюртма: 171
Индекс: 7521
Адади: 11 072

Бизнинг манзил: 150114, Фарғона шаҳри, Соҳибқирон Темур кўчаси, 28-уй.
Бош муҳаррир қабулхонаси: (факс) 73-226-02-70.
Реклама ва эълонлар: 73-226-71-24.

Саҳифаловчи Алишер Розиқов.

ISSN: 2010-8370

*Газета сешанба ва жума кунлари чиқади.* ■ Баҳоси келишилган нархда. ■ Навбатчи муҳаррир Ҳаётжон Бойбобоев. ■ *Газета сифати учун босмахона масъул.*